



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

4(6)

2023





ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
международный научно-методический журнал

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
international scientific-methodical journal

**№4(6) 2023**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

## MUNDARIJA

<b>07.00.00 - TARIX .....</b>	<b>6</b>
<b>Мубинов Мухаммадали Ақобирович.</b> Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами.....	6
<b>13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI .....</b>	<b>13</b>
<b>Alimardonov Zohid Shukurillaevich.</b> Kursantlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish samarali muloqot sharti sifatida.....	13
<b>Axmedov Axat Axrorovich.</b> Fizika darslarida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini mobil dasturlar orqali shakllantirish .....	19
<b>Niyozmetoza Roza Hasanovna, Qoraboyev Husniddin Kamolovich.</b> Matn mazmunini tushunishga yordam beruvchi ish turlari .....	23
<b>Muxitdinova Xadicha Sabirovna.</b> O'zbek tilini o'qitishda mashq va topshiriqlar bilan bosqichli ishlashni tashkil etish .....	27
<b>Jalolova Pokiza Muzaffarovna.</b> Talabalarning texnik bilimlarini rivojlantirishda dasturiy ishlanmalardan foydalanish.....	36
<b>Eshboyeva Surayyo Qahramon qizi.</b> Tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikning talqini (1-4-sinf misolida).....	41
<b>Meliqo'ziyev Dadaqo'zi Jo'raqo'ziyevich.</b> O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini, bilimni baholashning o'ziga xos xususiyatlari .....	46
<b>Husenova Aziza Sharipovna.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari.....	51
<b>Shadiyeva Nigora Sharipovna.</b> Dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish asosida bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati.....	57
<b>Quliyeva Shahnoza Halimovna.</b> Texnologik ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda debat metodini qo'llash .....	62
<b>Mavluda Muhamedovna Qosimova.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishda o'rta arifmetik qiymatni topishga doir masalalarning o'rni .....	66
<b>Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li.</b> Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishda mustaqil ta'limning roli .....	71
<b>Almardanov Jo'rabek Bobonazarovich.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<b>Abduqodirov Jasur Baxtiyor o'g'li.</b> Optikaga doir nostandart masalalarni yechishning metodik komponentlarini shakllantirish .....	78
<b>Jabborova Saodat Zoirovna.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalashning shakl, usul va yo'llari.....	82
<b>Axmedov Aminjon Amrullayevich.</b> Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda qadriyat kategoriyalari mazmuni .....	87
<b>Hamroyeva Sevara Nasriddinovna.</b> STEM ta'limi orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda demonstratsion tajribaning o'rni .....	92
<b>Eshchanov R.A., Shirinova D.O., Sobirov J.</b> 7-sinf kimyo darsida kislorod mavzusini o'qitishda barqaror taraqqiyot ta'limi tushunchalarining ahamiyati .....	95
<b>Egambergan Madraximovich Xudoynazarov.</b> Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatishning didaktik tamoyillari.....	100
<b>Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi.</b> Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayoni pedagogik-psixologik talqini.....	104
<b>Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich.</b> Kichik yoshli o'quvchilarning informatika darslarida axborotni tuzilmalashtirish mahoratlarini shakllantirishning metodik va didaktik aspektlari ....	108
<b>Abdusamatov Alisher Sobirovich.</b> O'qituvchi semiotik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida noverbal semiotikani o'zlashtirish.....	111

<b>Xolov Olimjon Chorshamiyevich.</b> O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda abdulla avloniy hikoyalarining aksiopedagogik imkoniyati.....	117
<b>Ortiqova Nodira Mamajonovna.</b> O'zbekistonda gender tarbiyasiga munosabatlarning ilmiy pedagogik asoslari.....	121
<b>Turdiyev Mirzohid Rustamovich.</b> Lazer tibbiyoti mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha o'quv jarayonining tashkil etish modeli .....	125
<b>Nurulloyev Firuz No'monjonovich.</b> Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ilmiy ijodan foydalanish .....	130
<b>Otayeva Salamat Sabirovna.</b> STEAM ta'limi texnologiyasi asosida ilmiy qarashlarni tarkib toptirish .....	137
<b>Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi.</b> STEAM yondashuv asosida fanlararo aloqadorlikning metodik asoslari .....	141
<b>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna.</b> Husayn Voiz Koshifiy merosini o'rganish jarayonida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	146
<b>Muxtor Qayumovich Ro'ziyev.</b> Ta'lim jarayoni davrlari asosida dars o'tishda o'quvchilarning idrok etish xususitlarining rivojlanishi.....	153
<b>Saydillayeva Mehrinaz Bahodirovna.</b> Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda ta'lim dasturlarining ahamiyati.....	156
<b>Allaberganova Nargiza Polvannazirovna.</b> Tarbiyachilarni polifunksional yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirishga doir faoliyatini tashkil etish .....	160
<b>Umarov Bahrom Norboevich.</b> Bo'lajak falsafa doktori (PhD) doktorlarning axborot-tadqiqot kompetentligini veb-tahlil tizimi orqali monitoring qilish imkoniyatlari .....	165
<b>Atoeva Mexriniso Farxodovna.</b> Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan tabiiy va aniq fanlar uchun kredit-modul tizimi .....	169
<b>Ozodova Madina Hamza qizi.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik asosida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish metodikasi .....	178
<b>Хусниддинов Хумоюн Хусниддин угли.</b> Развитие творческих способностей младших школьников на уроках читательской грамотности .....	182

### **19.00.00 - PSIXOLOGIYA FANLARI ..... 193**

<b>Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna.</b> O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....	193
<b>Safarov Dilmurod Xalimovich.</b> Zamonaviy rahbar imidjning psixologik xususiyatlari.....	199
<b>Qutlug'-Bek Bekturodovich Qodirov.</b> Diniy psixologiyaga oid masalalarni o'rganishda ijtimoiy fanlar mutaxassislari va allomalarning asarlarini hamda fikrlarini tartiblash yuzasidan yana bir bor polemik fikrlar xususida .....	203
<b>Abdulloyev Komiljon Fayzulloyevich.</b> Tadbirkorlik psixologiyasining xususiyatlari va uning tadbirkorlik faoliyatidagi ahamiyati.....	210



Ashurova Marhabo Sayfulloyevna  
Buxoro davlat universiteti  
boshlang'ich ta'lim kafedrasini o'qituvchisi

---

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARDA  
MA'NAVY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

---

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida fikr boradi.

*Kalit so'zlar:* javonmardlik, futuvvat, xulq, axloq, ustoz (shadd otasi), til odobi, ko'z odobi, eshitish odobi, ko'l odobi

**ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ  
ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ  
НАСЛЕДИЯ ПРОРОКА ХУСЕЙНА ВОИЗА**

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются педагогические и психологические особенности развития духовно-нравственных качеств учащихся посредством произведений Хусейна Ваиза Кошифи.

*Ключевые слова:* мужество, отвага, поведение, мораль, учитель (отец Шадда), языковой этикет, глазной этикет, слуховой этикет, ручной этикет.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE  
DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND ETHICAL QUALITIES OF STUDENTS IN  
THE PROCESS OF STUDYING THE HERITAGE OF THE PROPHET HUSSEIN VOIZ**

*Annotation.* This article discusses the pedagogical and psychological features of developing spiritual and moral qualities in students through the works of Husain Vaiz Koshifi.

*Key words:* youth courage, bravery, behavior, morals, teacher (father of Shadd), language etiquette, eye etiquette, hearing etiquette, hand etiquette

Markaziy Osiyoda X asrdan boshlab yangi ma'naviy-amaliy harakat javonmardlik yoki futuvvatchilik harakati tarqaldi. Javonmardlar asosan oddiy xalq ichidan chiqqan pahlavonlar, qiziqchilar, hunarmandlar, sipohilar va boshqalardan tashkil topgan bo'lib, har birining o'z jamoasi, piri, ustozlari bo'lgan. Oddiy yigit javonmardlik tariqatiga kirishi uchun pirga qo'l berib, ustozga sidqidildan ahdu paymon qilib, mardlik belbog'ini bog'lamoq kerak bo'lgan. Barcha javonmardlar bir-biriga aka-uka, birodar bo'lishgan. Beg'araz yaxshilik qilish, borini o'zгалar bilan baham ko'rish, muhtojlarga yordam berish, piru ustozlar nomusini pok tutish, ma'naviy va jismoniy yetuklikka intilish, mard va olijanob bo'lish, mol-dunyodan insonni ulug' tutish har bir javonmardning odatiy fazilati edi. Javonmardlik tariqatining axloqiy-tarbiyaviy mohiyati nihoyatda shuqur va ko'p qirrali bo'lganligi sababli keng tarqaldi hamda keyingi davrlarda rivojlangan tasavvuf tariqatlariga zamin tayyorladi.

Insonning go'zal xulqi, axloqi hamiydasi Allohga ham xush kelishi Qur'onda va hadislarda qayta-qayta ta'kidlanadi. Insoniy pok fazilatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida Saudiyalik olim Muxsin Ahmad Borum shunday yozadi: "Yaxshi axloq, ezgu sifatlar o'z sohibi qadrini ko'taradi, obro'sini oshiradi, ulug'vorlik baxsh etadi, uni Alloh

oldida ham, insonlar oldida ham azizu mukarram qiladi. Qabih sifatlar esa kishi qadrini tushiradi, mavqeini pasaytiradi, uni Alloh va odamlar oldida sharmanda qiladi".

Axloqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u o'zining boshqa shakllari kabi ijtimoiy hayotning aksidir. Unda axloqning sub'ektiv tomoni bo'lgan tarixiy o'zgaruvchan axloqiy munosabatlar mavjud. Axloqiy ongning zamirida axloq kategoriyasi yotadi. Axloq ong shakli shu bilan birgalikda, urf-odatlar, amaliy harakatlar majmuasi hamdir. Axloq tushunchasi boshqa ijtimoiy ongning shakllariga qaraganda ertaroq ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Jamiyatda insonlarning kundalik hayotdagi shaxsiy munosabatlardagi xulq-atvorini tartibga solish uchun xizmat qilgan. Axloq qoidalari hamma uchun majburiy bo'lgan va shuning uchun ham bu umumbashariy ahamiyatga egadir. Jamoaning barcha a'zolariga taaluqli bo'lgan axloqiy qoidalar jamiyatning qadriyat asoslarini tashkil etuvchi barcha umumiy narsalarni o'zida birlashtiradi. Jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan xulq-atvor normalari va qoidalari majmui sifatida harakat qilgan.

Bilgilki, ulug'lar darveshlik barcha adabdir demishlar. Ya'ni har bir vaqtning, har bir holatning, har bir maqomning o'z odobi bordir. Bas, kimki odobni saqlasa, mardlar maqomiga yeta oladi. Hakim Abulmajd Sanoiy "Hadiqatul haqiqat" ("Haqiqat bog'shalari") asarida debdurkim, suhbat adab natijasidir va adab hurmat natijasi va hurmat savfat (sof, pokiza) natijasi va savfat ko'ngli natijasi va ko'ngil aql xazinasini va aql esa sir xazinasini, sir ma'rifat xazinasidir... Va debdurlarki, zohiriy adab botin adabining belgisidir. Har bir odam biror martabaga erishsa, odobidan erishadi.

Bu borada Jaloliddin Rumiy:

Ham adabdin nurga to'lmish bu falak,

Ham adabdin tojdir, ilohiy nurdan ul

Va yana:

Adabdin tojdir, ilohiy nurdan ul,

Bu tojni kiy, sanga oshiq hama yo'l.

Koshifiy yana ko'ngilni asrash va yetti a'zo: ko'z, quloq, til, qorin, og'iz, qo'l va farj (tanosil) a'zolarining odoblari haqida to'xtalib, shariatga xilof ishlardan, gunohdan, hasad, takabbur, xudpisandlik, riyo, g'aflat, baxillik, hirs va shunga o'xshash yomon illatlardan ko'ngil oinasini pokiza tutmoqlik kerak deb, ta'kidlaydi. Ko'ngil oinasini xas - xoshokini safo supurgisi bilan tozalab turgin.

Dil o'yin safo supurgisi ila supurmaguncha,

Hazrati jonon jamoli unda jilva etmagay.

Axloq qoidalari hamma uchun majburiydir. Chunki u odamlar hayotining muhim shartlarini, ma'naviy ehtiyojlarini aks ettiradi. Axloq insonning jamiyatga munosabatini va jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablarini aks ettiradi. U odamlarning bir-birlari va jamiyat oldidagi burchlarini belgilab beruvchi xulq-atvor qoidalarini taqdim etadi. Axloqiy ong inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Kasbiy axloq, kundalik axloq va oilaviy axloqni ajratib ko'rsatish mumkin. Axloqiy g'oyalar jamiyat tomonidan ishlab chiqiladi va uning rivojlanishi o'zgarishi mumkin. Axloqning asosiy vazifasi jamiyatning barcha a'zolari va ijtimoiy guruhlarning munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Axloqiy ong tarkibida axloqiy ideal muhim o'rin tutadi. Bu axloqiy baholashning eng yuqori mezon. Kishilarda axloqiy idealning shakllantirishning zaruriy sharti ularning axloqiy madaniyat darajasi bo'lib, u ma'lum sharoitlarda va amalda bunday qadriyatlarni yaratish yo'nalishlarida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish o'lchovidir. Axloqiy ong odamlarning ijtimoiy hodisa va harakatlarini ularning qadr-qimmatini nuqtayi nazaridan aks ettiradi. Qadriyat deganda shaxs yoki jamoaning ma'naviy ahamiyati, muayyan hatti-harakatlari va qadriyat g'oyalari (me'yorlar, tamoyillar, yaxshilik va yomonlik tushunchalari, adolat) tushuniladi. Baholovchi ongda ba'zi qadriyatlar yo'qolishi mumkin, boshqalari paydo bo'ladi. O'tmishda axloqiy bo'lgan narsa zamonaviy hayotda axloqsiz bo'lishi mumkin. Axloq dogma emas, u tarixiy jarayonning borishiga mos ravishda rivojlanadi.

Axloqiy ongning o'ziga xosligi shundaki, u urf-odatlar va an'analar bilan qo'llab-quvvatlanadigan o'z-o'zidan shakllangan normalar, baholar va tamoyillarni aks ettiradi. Shaxsning

148 axloqiy talablarining bajarilishi jamiyat tomonidan baholanadi, bu uning ayrim vakillarining rasmiy vakolatlari bilan bog'liq emas. Insonning o'zi o'z harakatlari va sodir bo'layotgan voqealarni axloqiy me'yorlarga asoslanib baholay oladi, shuning uchun u axloqiy ongning etarlicha rivojlangan darajasiga ega sub'ekt sifatida harakat qiladi.

Axloq normalari ikki xil ko'rinishda bo'ladi; axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida; ikkinchisi axloqiy ong shakllari sifatida. Birinchi shakl ko'pchilikning hatti-harakatlari tufayli kelib shiqqan bo'lsa, ikkinchisi axloqiy norma har bir insonning ongida qoida sifatida namoyon bo'lib harakatga yo'naltirilgan motiv demakdir. Kasb axloqiy normalariga qo'yidagilar kiradi: odoblilik, xushmuomalalik, kamtarlik, sabrlilik, bag'rikenglik, adolatlilik va asosiysi halollik.

Bugungi davrda texnologiyalar insoniyatni qurshab olgan davrda Koshifiyning ushbu fikrlari go'yo bugungi kun uchun yozilgandek, masalan: Voizdan ko'zning odobi nechta deb so'rasalar, ikkita: birinchidan, ko'zni to'rt narsani ko'rishdan saqlash kerak. Ikkinchidan, to'rt narsani ko'rishga ko'zni ochish kerak. Aslida ko'zni nimani ko'rishi mumkin deyishsa, yo'lni ko'rib, qadamni qo'yishni mulohaza qilish uchun avval yo'lga qarash kerak. Ikkinchidan, yer va osmonga qarash kerak. Ko'z qarashi mumkin bo'lmagan narsalar qo'yidagilar: Ko'zni nomahramni ko'rishdan man etmoq kerak. Chunki unga nazar zaharli o'q kabidir. Ikkinchidan, ko'zni shahvat qo'zg'ovshi suratlardan asrash kerak, uchinchidan, ko'zni o'zgaralar aybini ko'rishdan asrash kerak;

O'zgaralar aybiga boqma, o'zingga boq,

Ko'zni yoqaga berkit, dil shamini yoq.

To'rtinchidan, ko'zni birovga haqorat nazari bilan qarashdan asragil. O'zgaralarni kamsitish, mazax qilish, ojizlar ustidan kulishdan saqlash. Chunki hech kim nuqsondan xoli emas. Hoja Imomiddin Faqih yozganidek

Mamlakat shohi bo'larsan yo ilohing soyasi,

Lek boqmas sen haqorat ko'z ila bir bandaga.

Koshifiy quloqning odobi borasida esa, u ikkita, birinchisi quloqni uch narsaga ochmoq kerak, ikkinchisi, uni uch narsadan saqlash kerak. Quloq eshitishi lozim bo'lgan narsalar: avval botil va bid'at so'zlardan, ikkinchidan, behuda va foydasiz fahsh so'zlardan, uchinchidan esa, g'iybat va bo'hton so'zlarni eshitishdan.

Tilni ochish kerak bo'lgan narsalar qaysi deb so'rasalar aytgin hojat zarurati yuzasidan ko'ngillarda yashirin bo'lgan rozni izhor etish, mazlumlar faryodiga javob berish va mahrumlar imdodi uchun so'z aytish. Yana tilni saqlash lozim bo'lgan narsalar qo'yidagilar: birinchidan yolg'on gapirishdan, ikkinchi, va'daga xilof gapirish va munofiqona so'z aytishdan, uchinchidan, g'iybat va bo'hton gaplardan, Chunki bo'hton fosiqlar ishidir. To'rtinchidan, behuda bahs qilishdan va gap tashishdan, beshinchi, o'zini maqtash va ta'riflashdan, oltinchi, navkar va xizmatkorlarni la'natlashdan, yettinchi, qarg'ashdan, duoyi bad qilishdan, sakkizinchi, mazax - masxara qilish va hazil -huzuldan.

Koshifiy qo'lning odobiga to'xtalar ekan, ular beshta: halol ish bilan shug'ullansin (kasbi bo'lsin), birovga ozor bermasin, haromga tegmasin, omonatga xiyonat qilmasin, qalamni to'g'ri so'z uchun ishlatsin va qalam bilan yozganini til bilan aytish imkoni bo'lsin.

Voiz qorin odobiga to'xtalib, insonlarning harom va shubhali taomlarni yemaslik va pok bo'lishga chaqiradi.

Endi esa oyoqlar odobiga to'xtalib, inson uchta joyga borish va uchta joyga bormaslik kerakligini aytib o'tadi. Ular: borilishi kerak bo'lgan joylar, xayrli joyga borish, qabrlar va qalblar (bemor insonlar) ziyoratiga borish. Borilishi kerak bo'lmagan joylar: zolimlar va haromxo'rlar uyiga bormaslik, qimorxonalar va xarobalar kabi noloyiq va tuhmat joylarga bormaslik, nomahramlar orqasidan qadam tashlamaslik kerakligini aytib o'tadi.

Koshifiy fikrini davom ettirib: "Odamzod o'z axloqini o'zgartirib boradi, ya'ni xulq-atvor yaxshilik tomon o'zgarishi kerak va bu so'zning haqiqati shundaki, odamlar maqbul va nomaqbul axloqiy sifatlar orasida doimiy kurash boradi, ya'ni har bir sifat o'ziga qarshi sifatni yo'q qilish payida bo'ladi. Shundagina peshtaxta (sandiqlik) ichidagi "qalb" (arab tilida qalb so'zi o'zgaruvchi,

erituvchi, degan ma'nolarni beradi) yaxshi xislatlardan nishona berib boradi. Ko'ngil inson badanidagi sultondir, u birovning to'riga tushsa, ko'ngilning tobasi bo'lgan badan ham unga bo'ysunmay iloji bo'lmas. Bu borada Mavlono Rumiy ham insonning "qalb ko'zi" ochilmas ekan u o'zini, o'zligini topa olmaydi, deb ta'kidlaydi.

Koshifiy inson ruhi borasida to'xtalib, "naqib" so'zining ma'nosi nima, deb so'rasalar, arabcha so'z bo'lib, sinovchi, taniydigan demakdir, ya'ni naqib odamlar fe'li ruhiyatini yaxshi fahmlaydigan kishidir, va u kishilar o'z zamonasi qavmu ahlining guvohidirlar. Tariqat ahli esa kishilarning hol ahvolini payqaydigan, ruhshunos odamni naqib deydilar, ya'ni naqib bir qancha fazilatlarni jamlagan donishmand, zakiy insondir. Agar qanday odamlarni naqib deydilar, deb so'rasalar, javob berib aytginki, qo'yidagi o'n xislatni jamlagan odam naqibdir; Birinchidan, u olim bo'lmog'i kerak. Ikkinchidan, u olim, ya'ni ilmiga amal qiluvchi tajribali kishi bo'lsin. Uchinchidan, ko'p safar qilib, ko'pni ko'rgan bo'lsin. To'rtinchidan rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lsin. Beshinchidan, nasihatgo'y bo'lsin. Oltinchidan, yaxshilikni sog'inadigan bo'lsin. Yettinchidan, saxiy bo'lsin. Sakkizinchidan, xulqi yoqimli bo'lsin. To'qqizinchidan haq so'zni aytadigan bo'lsin. O'ninchidan sirni saqlaydigan bo'lsin. Agar "naqib" so'zining harflari nima ma'noni bildiradi, deb so'rasalar, (arab yozuvida): "N" - niyozmandlikni, "D" - qabulni (naqib tariqat farzandlarining barchasini muhabbat bilan qabul qilishi lozim), "I" - yorliq va mehribonlikni, "B" - behbudiy (futuvvat ahli niyatlarining doimiy yaxshiligi) ni bildiradi.

Agar belbog'ni bog'lash va yechishning ma'nosi nima, deb so'rasalar, degilkim, tariqatda nechta bog'lanadigan va nechta ochiladigan narsalar (eshiklar, mushkulliklar) bor, bu o'shanga ishoradir. Agar bog'lanadigan narsalar nechta va ochiladiganlari qancha, deb so'rasalar, aytgil: o'n ikkita bog'lanadigan va o'n to'rtta ochiladigan (yechiladigan) narsalar bor. Agar bog'lanadigan (berkilgan) narsalar qaysidir, deb so'rasalar, ayt: avval - ko'zni harom narsalardan va ko'rish gunoh bo'ladiganlaridan berkitish, ikkinchi-quloqni eshitish nojoiz narsalardan berkitish, uchinchi-aytilichi nomaqbul so'zlardan tilni tiyish, to'rtinchi-g'ayr narsalardan fikrni asrash, beshinchi - ko'ksini hasad va kinadan saqlash, oltinchi-ko'ngilni shubhadan xoli tutish, ettinchi - qo'lni xalq ozori va harom narsalardan tortish, sakkizinchi-tomoqni man qilingan narsalardan berkitish, to'qqizinchi-futuvvat bandini zinodan va sharr (yomon) ishlardan saqlash, o'ninchi - oyoqni tuhmat keltiruvchi va iflos joylarga borishdan saqlash, o'n birinchi-xotirani behuda fikrlardan saqlash, o'n ikkinchi - baxillik va ta'ma yo'lini berkitish. Ochiladigan narsalar qaysidir, -deb so'rasalar, aytgin: eshikni mehmon uchun ochish, dasturxonni ochish, odamlar bilan muloqotda yuzning ochiqligi, piri va muridlarni ko'rish uchun ko'zning ochiq bo'lishi, quloqni oriflar va ustozlar so'zi uchun ochish, tilni Subhonaxu taolo zikri uchun ishlatish, shafqatu ehson uchun qo'lni ochish, odamlar muhabbatiga qalbni ochish, ishq uchun ko'ngilni ochish, haqiqatni bilish uchun fikr eshigini ochish, xayru savob ishlar uchun qadamni ravon etish, ezgu hikmatlarga xotira darchasini ochish, saxovat va ko'ngil ovlash eshigini ochish, ezgu axloqqa yo'l ochish.

Koshifiy inson qalbi ruhiyati to'g'risida fikrini davom ettirib, sham inson o'rtanishini, mehru muhabbat va qalb alangasini ifoda etadi deb aytadi. Chiroq esa inson botinining ravshanligi va zohirning oshnoligiga ishora etadi. Agar chiroqning shu'lasini pilikka nima deydi, deb so'rasalar "o'rtanish yonishdadir", Chunki toki o'zing yonmaguncha boshqalarga yorug'lik tarata olmaysan, deb tushuntiradi. Pilik shulaga esa "men tanimni bag'ishladim va o'tga soldim va yonib mahbubimga erishdim", deb aytadi. Koshifiy bu yerda tasavvufiy inson ruhiy holatini ko'rsatishga harakat qilganligini ko'rish mumkin.

Husayn Voiz Koshifiyning fuqarolik, ustoz-shogird munosabati, yaxshilik kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy omillar, shart-sharoitlarni o'zaro yaxlitlikda talqin qilish lozimligini ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida asosladi. Bu faslda mazkur nazariy asosni davom ettirib, shaxsning psixologik tuzilishi, shaxslararo munosabat, faoliyat va uning tarkibiy qismlari, o'z-o'zini anglash va bu asosda o'z-o'zini rivojlantirish orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning psixologik omillarini inson hayotida, ayniqsa, yoshlarning hayotida tutgan o'rini yoritishga harakat qilamiz. Shu bois, buyuk rus pedagogi, pedagogik antropologiyaning targ'ibotchisi K.D.Ushinskiyning "Inson tarbiya predmeti sifatida" nomli antropologik asarida



150 ta'kidlab o'tganidek, "Agar pedagogika bolani har tomonlama tarbiyalamoqshi bo'lsa, u avvalo, bolani har tomonlama o'rganmog'i lozim". Shu nuqtayi nazardan, barkamol avlod shaxsining muhim sifati - ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni maqsad qilib belgilagan ekanmiz, muammoni pedagogik asoslash bilan birga, uni psixologik omillarini aniqlash ham katta ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Biz bu faslda Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni ta'minlaydigan psixologik omillar xususida so'z yuritimiz. Zero, psixologik omillar, ya'ni shaxsning bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xotira, xayol, nutq, diqqat), shaxsning emotsional-irodaviy holatlari (his-tuyg'u, idrok, qiziqish, mayl), shaxsning individual psixologik xususiyatlari (maqsad, faoliyat, temperament, xarakter, qobiliyat) Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish shaxs sifatida shakllanishida, davrning yuksak ma'naviy va axloqiy salohiyatli, hamda yuqori malakali mutaxassis bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar sotsial individ sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, ma'naviy-madaniy hayotida faol ishtirok etishi lozim bo'ladi. Buning uchun unga bilim, g'ayrat-shijoat, ijodiy tafakkur, o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish masalasi, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik ko'nikmalari shakllangan bo'lishi lozim. Psixologik manbalarda qayd etilishicha, oliy ma'lumot olishga tayyorgarlik davri – bu talabalik davriga to'g'ri keladi. Zero, taniqli psixolog, professor E.G'oziyev ta'riflaganidek, "Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17-22-25 yoshni o'z ishiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan, o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Mazkur davrda o'spirinlar o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshdan kechiradilar. Jumladan, kattalarning har xil ko'rinishdagi (unga yoqish va yoqmasligidan qat'iy nazar) rollarni tez sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko'nika boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi".

Bu ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar yangicha tashkil topgan turmush tarzi (mustaqil yakka holda yashash), yangi o'qish faoliyati holati (fan asoslarini o'zlashtirishi lozim), yangi do'stlar, kursdoshlar, ilmiy texnikaviy kommunikatsiyalar (kompyuter, EHM, internet, masofali o'qitish va h.k.) u yoki bu ko'rinishda, talaba shaxsiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Bolalar va yoshlar psixologiyasini tadqiq qilgan psixologlar B.T.Ananayev, A.K.Platonov, R.V.Kuzmina, L.I.Bojovich, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, V.L.Tokapeva va boshqalar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish murakkab jarayon ekanligini ta'kidlaydilar. Bu, avvalo, fanlarni o'qitishga o'tish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bu davrda shaxsiy sifatlari, xususiyatlarning jadal o'sishi bilan bog'liq bo'ladi. "Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri, - deb yozadi E.G'oziyev, - o'qish faoliyatining ongli motivlarining kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshadi, lekin xulqning eng muhim shartlari mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi" [139,31].

Talabalik davrining o'ziga xos psixologik jihatlaridan biri shaxslararo munosabatdir. Bu davrda talaba yangi insonlar (kursdoshlar, o'qituvchilar, rahbarlar)ga duch keladi. Bunda shaxslararo munosabatlar shaxsiy, predmetli, informatsion va emotsional holatdagi ko'rinishlarda bo'ladi. Ko'rib o'tganimizdek, shaxslararo munosabatlar ko'rinishlarning keng ko'lamini qamrab oladi. Bular talabalarning bir-birini tushunishi, qabul qilishi, yoqtirishi (o'ziga jalb qilish, simpatiya), yurish-turishda o'z "o'rniga" ega bo'lishida ifodalanadi. Shu asosda, guruh, jamoada shaxslararo munosabatlar va guruh a'zolarining kelishuvchanligi (fiziologik va psixologik) "psixologik muhit" deb atalmish eng muhim ijtimoiy-siyosiy holatni vujudga keltiradi. Bu, albatta, ularning shaxsiga, fuqarolik madaniyatining rivojlanishiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Darhaqiqat, ijtimoiy shaxslararo munosabat individning ijtimoiy izolyatsiyasini keltirib chiqaradigan holatda, tajribalarda, insonning guruh tomonidan rad etilganligi holatlarida ham namoyon bo'lishi aniqlangan. Shuning uchun, o'quv jarayonida operativ sosiometrik tekshirish olib borish maqsadga muvofiq. Bu esa guruhda, shaxslararo munosabatlar tizimida har kimning

tutgan o'rnini aniqlashga yordam beradi. Guruhda a'zolarining "qabul qilinganligi", "ajralib qolishi", "rad etilishi" kabi holatlar, signallar bo'lishi mumkin. Bu signallar aniq psixologik-pedagogik aralashuvni talab etadi va fuqarolik madaniyatining rivojlanganligining qay darajadiligini ko'rsatadi.

E.Lingart o'z tajribasida psixologik shaxslararo munosabatda o'zaro aloqadorlikning ikki bosqichini aniqlaydi. Birinchi bosqich - bu "sahna effekti" deb nomlanadi. Bu inson xatti-harakatini o'zini tomoshabinlardek tutgan odamlar ishtirokida amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich – bu inson xatti-harakatining muayyan faoliyatda faol ishtirok etishlari ta'sirida o'zgarishi mumkinligi bilan xarakterlanadi" [141, 70].

Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish jarayonida bu psixologik jihatlarni hisobga olmaslik yoki ularga tayanib ish tutmaslik ishidagi faollikka salbiy ta'sir ko'rsatib, faoliyat samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkinligini tajriba ko'rsatdi.

O'quv va ijtimoiy faoliyatning yangicha mazmun kasb etishi, shaxslararo munosabat, yangi jamoa va guruhdagi hayotning keskin o'zgarishi - bu davr yigit va qizlarida o'z-o'zini anglashning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki, bu o'z-o'zini anglash, oddiygina o'sishdan iborat bo'lmay, balki u sifat jihatdan o'ziga xos tavsifga ega bo'ladi. Bu o'zgarish talaba shaxsining ma'naviy-psixologik xususiyatini aniq hayotiy maqsadlar, harakatlar, qiziqishlar, istak-xohishlar nuqtayi nazaridan anglash va baho berish hususiyati bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa talabada o'zining ruhiy hayotiga, o'z xatti-harakati hamda shaxsiy sifatlarining ijtimoiy yo'nalish kasb etganligiga, o'z qiziqish va xohish-istaklari yangicha ma'no kasb etib, talabaning o'z xatti-harakatlariga, dunyoqarashiga, faoliyati mazmuniga nazar tashlashi, tahlil qilishi, o'z hislari va kechinmalarini bilishga intilishining kuchaygani bilan tavsiflanadi. Bu o'z-o'zini anglashdan, talabaning yangi hayot va yangi faoliyat hususiyatidan kelib chiqadi. Jamoadagi yangi vaziyat, o'quv yurtida bo'ladigan yangi hodisalar, yangicha munosabatlar talabani o'z imkoniyatlarini baholashga, o'zining aqliy va irodaviy kuchini o'ziga qo'yilayotgan talablar asosida taqqoslashga va bu talablarga javob bera olishi yoki bera olmasligi nuqtayi nazaridan anglashga majbur qiladi. Shu tariqa, talaba o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini, o'zining ustunligi yoki ojizligini aniqroq anglay boshlaydi. Bu psixologik holat talabalarda fuqarolik madaniyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun muhimdir.

Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, oliy ta'lim yoshidagi talaba (o'spirinlikning ikkinchi davri)da talabada o'z shaxsi, faoliyati, xatti-harakatlari to'g'risida aniq va to'g'ri, obyektiv tasavvur hosil bo'lishi uchun unga pedagogik yordam ko'rsatish lozim. Bu pedagogik yordam do'stona xususiyat kasb etib, kelajakda talaba imkoniyatlariga katta ishonch bildirish, uning shaxsini hurmat qilgan holda, tanqidiy mulohazalar vositasida, xayrixohlik, mehribonlik nuqtayi nazaridan bo'lsa, talaba ijtimoiy-siyosiy hayotni, iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyot mazmunini to'g'ri anglaydi va diqqat e'tiborga minnatdorchilik hissi bilan qaraydi. Bu hol ularda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlar ularda o'zlarining ma'naviy psixologik qiyofasini shakllantirishga qiziqishni uyg'otadi. Bunda mana shu qiziqishi to'g'ri yo'nalishga rag'batlantirish, talabalarda ma'naviy-psixologik qiyofadagi ijobiy sifatlarni, ularga mos ijobiy qahramonlar, ideallarni tasavvur qilishga intilishni tug'diradi. Bu ideallar ikki asosiy ko'rinishda mavjud bo'ladi. Birinchisi aniq, konkret kishilar (ota-ona, sevimli o'qituvchisi, o'quv yurtining hurmatli, ma'naviyatli kishisi, sevimli badiiy asarning yoki kinofilm, telespektaklning qahramonlari)ning obrazi bo'lsa, ikkinchisi jamiyatdagi ilg'or va faol insonlar, mehnakashlarning umumlashgan obrazlaridir. Bu obrazlar bo'lajak kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglash, o'qish va yashash maqsadini belgilash kuchayadi. Bu ideallar talabada o'qimishli, axloq-odobli, kelajakning ilg'or, namunali kishisi bo'lish hissini uyg'otadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, oliy o'quv yurtlarida o'qishning dastlabki bosqichlarida o'qituvchilar va tarbiyachilar talabalarining ma'naviy-axloqiy ongi, ma'naviy-axloqiy yo'nalishlariga befarq bo'lmasliklari lozim. Chunki talabalarining ma'naviy-axloqiy ongi uning ijtimoiy faolligini ta'minlaydi. Natijada, talabalar Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish mohiyatini aniq tushunish asosida tarkib

152 topib, burch, mas'uliyat, vijdon, majburiyat, shaxsiy g'ururlik, o'zining qadr-qimmatini anglash va faoliyatini shu yo'nalishda qurishga harakat kuchayadi. Talabalik davrlarida "vijdonlilik", "or-nomus", "iftixor" kabi axloqiy tushunchalar ancha mantiqiy ma'no kasb etgan bo'ladi.

Bularning barchasi talabalarning mantiqiy tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari va tashkilotchilik malakalarini o'stirish bilan birga, talabalarning shaxs sifatida rivojlanishlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shular bilan birga, talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda uning faoliyati va dunyoqarashi asosida shakllanadigan e'tiqodi muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda talaba shaxsi va uning tuzilishi muhimdir. Talaba shaxsining tuzilishi deganda, psixologiya nazariyasida ta'kidlanganidek, yaxlit psixik jarayonlar, o'ziga xos shaxsiy sifatlar, faoliyat va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar tushuniladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, individual shaxsiy sifatleri bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, nutq, diqqat), shaxsning emosional idoraviy holatlari (his-tuyg'u, iroda), shaxsning individual psixologik xususiyatlari (maqsad, temperament, xarakter, qobiliyat) hamda malaka va ko'nikma, odatlar kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Albatta, talaba shaxsining o'quv faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtiroki, ijtimoiy faoliyati bo'yicha bu tuzilishiga tayanmoq lozim. Ular talabada fuqarolik madaniyatini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi. Talabada shaxsiy sifatlarining rivojlanishida faoliyatining roli katta. U maqsad, vosita, natijadan iborat. Bular Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar**

- 1.Gushinskiy E.N. Vvedenie v filosofiyu obrazovaniya. -M.: Logos, 2000. –204s.
- 2.G'aybullayev N. R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. –T.: 2005. – 176 b.
- 3.G'ijduvoni Abdulholiq Xojajahon (tarj. M.Hasaniy va b.). – T.: Navro'z, 1994. -78 b.
- 4.G'oziyeva U. Yusuf Xos Xojibning axloqiy qarashlari // Xalq ta'limi. 2004. №4. –B.88-98.
- 5.Dashtiy Ali. So'fiylik nima va so'fi kim? (Fors tilidanA.Mahkam tarj) - Saodat. 1992. - №10. – 16-17 b.
- 6.Djurinskiy A.N. Istoriya obrazovaniya i pedagogicheskoy mysli / Uchebnik dlya studentov vysshix ushebnykh zavedeniy. - M.: Vlados-Rress, 2004. - 400 s.
- 7.Djurinskiy A.N. Pedagogika: istoriya redagogicheskix idey / Uchebnoe posobie. -M.: Ped. obshchestvo Rossii, 2000.-352 s.
- 8.Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. Futuvvatnomai Sultoniyy.Toshkent.: O'zbekiston.2019-345.b